

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJA BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.T.20.03 RAQAMLI BIR
MARTALIK ILMIY KENGASH**

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

JUMAMURATOV RENAT ESENBAEVICH

**KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA UMUMIY O'RTA
TA'LIM MAKTABLARIDA KIMYO FANINI O'QITISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH (QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI
MAKTABLARI MISOLIDA)**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (kimyo)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Nukus – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of the dissertation abstract of doctor of Philosophy (PhD)

Jumamuratov Renat Esenbaevich

Kompyuter texnologiyalari asosida umumiy o‘rta ta’lim maktablarida kimyo fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish (Qoraqalpog‘iston Respublikasi maktablari misolida) 3

Жумамуратов Ренат Есенбаевич

Совершенствование методики преподавания химии в общеобразовательных школах на основе компьютерных технологий (на примере Республики Каракалпакстан) 21

Jumamuratov Renat Esenbaevich

Improving the methodology of teaching chemistry in secondary schools based on computer technology (on the example of the Republic of Karakalpakstan) 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works 48

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJA BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.T.20.03 RAQAMLI BIR
MARTALIK ILMIY KENGASH**

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

JUMAMURATOV RENAT ESENBAEVICH

**KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA UMUMIY O'RTA
TA'LIM MAKTABLARIDA KIMYO FANINI O'QITISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH (QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI
MAKTABLARI MISOLIDA)**

13.00.02 - Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (kimyo)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Nukus - 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Ped3547 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qoraqalpoq davlat universiteti bajarilgan.

Dissertatsiya autoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме)) ilmiy kengashning veb-sarifasida (www.karsu.uz) va «ZiyoNet» axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Kaipbergenov Atabek Tulepbergenovich texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rasmiy opponentlar:	Pazilova Meruert Ermekbayeva pedagogika fanlar doktori (DSc), professor Nurimbetov Baxtiyar Chimbergenovich kimyo fanlari nomzodi, dotsent,
Yetakchi tashkilot	Navoiy davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi PhD 03/30.30.12.2019 T.20.03 raqamli bir martalik ilmiy kengashning «06» avgust 2025 yil soat 09⁰⁰ daqi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1. Tel.: (99861) 223-60-47; faks: (99861) 223-60-78; e-mail: karsu_info@odlu.uz).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (335-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1. Tel.: (99861) 223-60-47; faks: (99861) 223-60-78.

Dissertatsiya autoreferati 2025 yil «19» iyul kuni tarqatildi,
(2025 yil «19» iyuldagi №2 - rasmiy registr bayonnomasi).



Reymov A.M.
Ilmiy darajasi beruvchi ilmiy
kengash raisi, k.f.d., prof., akad

Qurboniyazov R.Q.
Ilmiy darajasi beruvchi ilmiy
kengash a'zosi, k.f.d., dotsent

Yuzumuratov Sh.N.
Ilmiy darajasi beruvchi ilmiy
kengash a'zosi, ilmiy seminar
raisi, k.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ta'lim tizimida ro'y berayotgan zamonaviy fan-texnika taraqqiyoti kimyo ta'limi sohasida axborot texnologiyalarini keng tatbiq etish va o'qitishning metodik asoslarini rivojlanish tendensiyalariga muvofiq takomillashtirish amaliyotiga alohida e'tibor qaratilmoqda. AQSH, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Malayziya, Turkiya, Germaniya kabi mamlakatlarda axborot texnologiyalarini o'qitish jarayoniga tatbiq etish asosida o'quvchilarning bilim olishlarini faollashtirish, intellektual rivojlantirish, tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishda yangi g'oyalarni aniqlash, amaliyotga tatbiq etish bo'yicha olib borilayotgan ishlar alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitishning zamonaviy usullaridan keng foydalanishni yo'lga qo'yish, innovatsion va axborot texnologiyalarini keng joriy etishni taqozo etmoqda.

Dunyoda ta'lim sohasidagi rivojlanish bosqichlariga mos ravishda o'quv materiallarini elektron ta'lim muhiti asosida takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son farmoni YuNESKO tomonidan qabul qilingan 2030 - yilgacha xalqaro ta'lim kontseptsiyasida «Butun hayot davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish» dolzarb vazifa sifatida belgilangan. Jahon miqyosida ta'lim jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy etish, ularning didaktik asoslarini o'rganib, yangi usul, vositalarni ishlab chiqish metodikasini va metodologik asoslarini takomillashtirish, o'quvchilardagi ijodiy bilish faoliyatining reproduktiv va produktiv darajalarni modellashtirish yuzasidan ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Intellektual salohiyatli o'quvchini tarbiyalashda ta'lim tizimining rolini kuchaytirish, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'qituvchilar faoliyatiga joriy qilish uchun zamin yaratishni taqozo qilmoqda.

Respublikamizda so'ngi yillarda ta'lim sohasida axborot texnologiyalaridan foydalanishning me'yoriy-huquqiy bazasini tubdan takomillashtirish, ilg'or xorijiy tajribalar, ilmiy izlanishlar va zamonaviy texnologiyalarni kimyo ta'lim jarayoniga integratsiya qilish, bilish faoliyatini shakllantirish orqali o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini o'stirish ustuvor vazifa qilib belgilangan. Davlatimiz rahbari tomonidan AKT sohasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Operatorlar, provayderlar va kichik tadbirkorlik subyektlariga bir qator imtiyozlar berildi. 2025-yil 1-yanvarga qadar boshqa xizmatlar bilan bir qatorda kompyuter xizmatlarini ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari uchun ijtimoiy imtiyozlar berish belgilandi. Buning natijasida ta'lim sohasida o'quvchilarga fanlarni shuningdek, kimyo fanini o'rgatishda axborot ta'lim resurslari, iqtidorli o'quvchilarning intellektual salohiyatini o'stirishning pedagogik imkoniyatlari yaratiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-avgustdagi PQ-4805-son «Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»¹, O'zbekiston Respublikasining

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-avgustdagi PQ-4805- son «Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»

2020-yil 23-sentyabrdagi O‘RQ-637-son «Ta’lim to‘g‘risidagi» Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 12-oktyabrdagi VMQ-646-son «Umumta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning milliy test tizimini joriy etish to‘g‘risida» qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi PQ-4963-son «Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora- tadbirlari to‘g‘risida» qarorlari, Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasiga oid davlat dasturiga muvofiq ravishda 2022-2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturi, shuningdek, ushbu sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan ta’lim jarayonini takomillashtirishga doir vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamiz ta’lim jarayonida kimyoni o‘qitishda axborot - kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanishning nazariy va metodik asoslari, ta’lim jarayonida axborot texnologiyalarini qo‘llash bilan bog‘liq masalalar A.A.Abduqodirov, F.A.Alimova va boshqalarning ilmiy ishlarida o‘rganilgan. Ularning fikricha, o‘quv jarayonini kompyuterlashtirish va testlardan foydalanish barcha darajadagi ta’limni takomillashtirishda katta ahamiyatga ega bo‘lib, fan asoslarini chuqur o‘rganish, butun o‘quv jarayonini jadallashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Kimyo o‘qitish metodikasi sohasida o‘zbek olimlari N.A.Anvarova, N.G.Rahmatullaev, M.Nishonov, Sh.K.Mamajanov, A.A.Abduqodirov, N.N.Azizxo‘jayeva, N.Abdullaeva, U.SH.Begimkulov, E.Eshchanov, L.Zaylobov, M.B.Ajjeva, A.Yu.Iskandarov, X.Rajabov, Sh.Shomurotova, I.E.Shernazarov va Sh.Sh.Begmatov kabi olimlar tadqiqot ishlari olib borgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi Mamlakatlarida D.I.Mendeleev - kimyo fanida elementlarning davriy jadvalini yaratib, elementlarning davriy qonunini kashf qilgan. Bu kimyo ilmiga katta turtki bergan T.M.Kurdyumova, A.A.Siromyatnikov, A.N.Leontev, N.V.Kuz‘mina, I.V.Martinenko, I.F.Demidova, A.A.Kuznetsov, A.Yu.Pavlicheva, O.N.Pustovoytov, V.Yu.Pityukov, E.A.Privalova, N.S.Radevskaya, A.Rodionov va boshqalar o‘z ilmiy tadqiqot ishlarida modulli o‘qitish tizimining nazariy asoslarini ochib bergan.

Xorijlik olimlardan Linus Pauling - Amerikalik kimyogar, kvant mexanikasi asosida kimyoviy bog‘lanishlar nazariyasini ishlab chiqqan. U vodorod bog‘lanishlarini va molekulalarning fazoviy tuzilishini o‘rganib, molekulyar biologiyaning rivojlanishiga hissa qo‘shgan, Gilbert N.Lewis - Amerikalik olim bo‘lib, kimyoviy bog‘lanish va valentlik nazariyasini rivojlantirgan. U lekin elektron juftlari bilan kimyoviy bog‘lanishlarni tushuntiruvchi Lewis tuzilmalari nazariyasini yaratgan Robert H.Grubbs - Amerikalik kimyogar va nobel laureati

bo'lib, organometalik kimyo va kataliz sohasidagi tadqiqotlari bilan mashhur. U, ayniqsa, metatez reaksiyalarini kashf qilish orqali sintez kimyosiga katta hissa qo'shgan Ahmed Zewail - Misrlik - Amerikalik olim va nobel laureati, femtokimyo sohasining asoschilaridan biri bo'lib, u molekulalar o'rtasidagi reaksiyalarni ultratezkor vaqt o'lchovlarida o'rganish usulini ishlab chiqqan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy - tadqiqot muassasasining ilmiy - tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqoti Berdaq nomidagi Qoraqolpoq davlat universiteti ilmiy - tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, «Innovatsion kompyuter texnologiyalari asosida axborot texnologiyalari orqali o'qitishni takomillashtirish» mavzusidagi ilmiy tadqiqot yu'nalishlari bilan bog'liq halda bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kimyo fanini o'qitish metodikasini kompyuter texnologiyalari asosida takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab shiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

kimyo fanini o'qitishning metodik tayyorgarligini didaktik ta'minotini faol axborot almashinishda elektron ta'lim resurslar ishlab chiqish asosida aniqlashtirish;

umumiy o'rta ta'lim maktablarida kimyo fanini axborot ta'lim vositalari orqali o'qitish mazmunin va tarkibiy asoslarini takomillashtirish;

kompyuter texnologiyalari asosida ishlanmalarni yaratish va qo'llashni hisobga olgan holda ma'ruza va laboratoriya mashg'ulotlarini takomillashtirish mexanizmini ishlab chiqish;

Qoraqalpog'iston Respublikasi umumiy o'rta ta'lim maktablarida kimyo fanini o'qitishda innovatsion - axborot ta'lim vositalari asosida takomillashtirish.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida Qoraqalpog'iston Respublikasi umumiy o'rta ta'lim maktablarida kompyuter texnologiyalari asosida kimyo fanini o'qitishning takomillashtirish jarayoni belgilanib, Shumanay tumani №7, Nukus tumani №4, Qora'zak tumani №1, Qanliko'l tumani №23 - sonli umumiy o'rta ta'lim maktablarida tajriba sinov ishlariga 488 nafar o'quvchilari jalb etilgan.

Tadqiqotning predmeti Qoraqalpog'iston Respublikasi umumiy o'rta ta'lim maktablarida kompyuter texnologiyalari asosida kimyo fanini o'qitish metodikasini takomillashtirishning mazmuni, shakllari, usullari va vositalari tashkil etgan.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil, tajriba-sinov tahlili, umumlashtirish, ijtimoiy metodlar (anketa, savol-javob, suhbat, test, ekspert baholash), pedagogik tajriba-sinov, matematik statistika metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

kimyo fanini o'qitishning metodik tayyorgarligini didaktik ta'minotini faol axborot almashinishda elektron ta'lim resurslar ishlab chiqilgan va masofaviy ta'lim imkoniyatlariga moslashtirilgan, kimyoviy davriy jadvalini tizimlashtirish ko'nikmalarini rivojlantirish asosida aniqlashtirilgan;

maktab ta'limini raqamlashtirish sharoitida o'qitish metodikasini moslashtirish, individuallashtirish va tabaqalashtirish tamoyillariga asoslangan kompyuter vositalaridan foydalangan holda o'qitishning modelini ishlab chiqish

orqali kimyo ta'limi mazmunini integratsiyalashning nazariy-metodologik asoslari takomillashtirilgan;

kutools dasturi asosida kompyuter texnologiyalari orqali kimyo fanini o'qitishda asinxron bog'lanish orqali takomillashtirilgan va kimyo fanini o'qitishga doir metodik qo'llanma yaratilgan;

Qoraqalpog'iston Respublikasi umumiy o'rta ta'lim maktablarida kimyo fanini o'qitishda masaofaviy ta'lim vositalari orqali innovatsion yondashiv asosida «Oprosnik 2», «Adonis», «Super test», «EquPixy» dasturlari negizida kimyo fanini o'qitish usullari takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

kimyo fanini o'qitishning metodik tayyorgarligining didaktik materiallardan foydalanib, kompetentlikni rivojlantiruvchi xususiyatini oshirish yo'llari modeli, faol axborot almashinishda elektron resurslar ishlab chiqilgan va masofaviy ta'lim imkoniyatlariga moslashtirilgan, o'quv materiallarini tizimlashtirish ko'nikmalari ishlab chiqilgan;

kimyo fani o'qitish metodikasini takomillashtirish modelini shakllantirilgan;

kimyo fanini o'qitishning metodik tayyorgarligini o'qitish bo'yicha integrativ yondashuv asosida «Illyustrativ metod», «Elektron platformani tahlil qilish metodi», «Onlayn trenajyur metodi», «Bumerang», «Pomodoro» metodlaridan foydalanib didaktik ta'minot yaratilgan nazariy va laboratoriya ishi mashg'ulotlari motivatsion, mustaqil fikrlash, kreativlik, modellashtirish mezonlari bo'yicha takomillashtirilgan;

kimyo fanini o'qitishning metodik tayyorgarligini oshirishda faollikni oshirish, kichik guruhlarda ishlash, hamkorlikda ishlash va motivatsiya berish orqali kompetentligi rivojlantirish bilan birga ilmiy asos ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo'llanilgan yondashuv va metodikalar, foydalanilgan nazariy va amaliy yondashuvlar rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik statistika metodlari yordamida asoslanganligi, metodika, xulosa va tavsialarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotda kompyuter texnologiyalari asosida umumiy o'rta ta'lim maktablarida kimyo fanini o'qitish metodikasini takomillashtirishga doir nazariy va metodik asoslar ishlab chiqildi. Kimyo fanini o'qitishda didaktik materiallardan foydalanish orqali o'quvchilarda kompetentlikni rivojlantirish yo'llari asosida metodik model yaratildi. Shuningdek, tadqiqot natijasida kimyo fanini o'qitishda integrativ yondashuvning samaradorligini oshirish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalar, jumladan, «Illyustrativ metod», «Elektron platformani tahlil qilish metodi», «Onlayn trenajyur metodi», «Bumerang», «Pomodoro» metodlaridan usullari bilan boyitilgan yangi metodik yondashuvlar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalari asosida umumiy o'rta ta'lim maktablarida kimyo fanini o'qitishda foydalanish mumkin bo'lgan elektron didaktik materiallar va resurslar ishlab chiqildi. Ushbu resurslar masofaviy ta'lim imkoniyatlariga moslashtirilib, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini tizimli rivojlantirishga qaratildi.

Tadqiqotda ishlab chiqilgan metodik model o'quvchilarning kimyo faniga qiziqishini oshirish bilan birga, ularning nazariy bilimlari va amaliy ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuningdek, kichik guruhlarda ishlash, hamkorlikda ishlash va motivatsiyani oshirish orqali o'quvchilarning faolligini kuchaytirish hamda ularni ilmiy - tadqiqot faoliyatiga tayyorlash imkoniyatlari yaratildi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qoraqalpog'iston Respublikasi umumiy o'rta ta'lim maktablarida kompyuter texnologiyalari asosida kimyo fanini o'qitishning metodik tayyorgarligini takomillashtirishga oid tadqiqot natijalari asosida:

maktablarda kompyuter texnologiyalari asosida kimyo fani o'quvchilarning tayyorgarligini metodik va didaktik materiallardan foydalanib, kompetentlikni rivojlantiruvchi xususiyatini oshirish yo'llari modeli, faol axborot almashinishda elektron resurslar ishlab chiqilgan va masofaviy ta'lim imkoniyatlariga moslashtirilgan, o'quv materiallarini tizimlashtirish ko'nikmalari bo'yicha «Uliwma hám organikalıq emes ximiya» Qoraqalpoq tilidagi o'quv qo'llanmasin yaratishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovaciya vazirligining 2024 yil 25 iyundagi 218-sonli buyrug'i asosida ro'yxatga olish raqami 218-036) Natijada ta'lim tizimida kompyuter texnologiyalari orqali o'qitishning metodik shart - sharoitlari takomillashtirilgan:

Qoraqalpog'iston Respublikasi umumiy o'rta ta'lim maktablarida kompyuter texnologiyalari asosida kimyo fanini o'qitishning metodik tayyorgarligini oshirish orqali, faol axborot almashinishda D.I.Mendeleyevning davriy jadvalin o'quvchilar mustaqil o'rganishi uchun qoraqalpoq tilida ishlab chiqilgan va masofaviy ta'lim imkoniyatlariga moslashtirilgan, o'quv materiallarini tizimlashtirish ko'nikmalarini rivojlantirish asosida aniqlashtirishga oid tavsiyalardan 7-10-sinflar uchun "Kimyo" darsligini yaratishda foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi Vazirligi 2024-yil 23-avgustdagi 02-27-636-sonli ma'lumotnomasi). Natijada Kompyuter texnologiyalari asosida umumiy o'rta ta'lim Qoraqalpog'iston Respublikasi maktablarida kimyo fanini o'qitishning metodik tayyorgarligini takomillashtirishning nazariy-amaliy asoslarini tahlil qilishga sharoit yaratilgan:

umumiy o'rta ta'lim maktablarida kutools kompyuter texnologiyalari asosida kimyo fanini o'qitishda asinxron bog'lanish orqali, masaofaviy aloqalar orqali innovatsion yondashiv asosida «Oprosnik 2», «Adonis», «Super test», «EquPixy», D.I.Mendeleyev davriy jadvalining qoraqalpoq tilidagi dasturlari ishlab chiqilgan va o'quvchilarning kompetentligin rivojlantirishga doir taklif va tavsiyalardan DGU №26552 elektron ta'lim resursin yaratishda foydalanilgan va O'zbekiston Respublikasining Dasturiy mahsulotlar davlat reyisterida ro'yxatdan o'tkazilgan 09.08.2023 yil. (Qoraqalpog'iston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi Vazirligi Respublika ta'lim markazining №97 sonli ma'lumotnomasi). Natijada kimyoviy elementlarning interaktiv davriy jadvali axborot tizimi interfeysi sayiti yaratilgan <https://ximetod.uz> va kimyo o'qituvchilarining o'quvchilarni o'qitishdagi metodik tizimi takomillashtirilgan:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi maktablarida kimyo fanini o‘qitishning metodik jarayonlari, axborot ta‘lim vositalari orqali interfaol va integrativ ta‘lim texnologiyasini takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar va «Kompyuter texnologiyalari asosida umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida kimyo fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish» (Qoraqalpog‘iston Respublikasi maktablari misolida)” mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishi natijalaridan, 2021-2023 yillarga 4-04/2021 ПЗ - «Yuqori darajali suv o‘simliklaridan foydalangan holda chiqindilarni biotexnologik tozalash bo‘yicha tadqiqotlar» nomli innovatsion loyihasini bajarishda foydalanilgan. Natijada ilmiy - nazariy ma‘lumotlardan keng foydalanish, o‘quv - metodik ta‘minot, nazariy va amaliy mashg‘ulotlarini yangi metodika asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur dissertatsiya ishining asosiy natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy-metodik, jumladan 2 ta o‘quv qo‘llanma, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, shundan 7 tasi Respublika va 3 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

Tadqiqot ishining tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, tavsiyalar va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 125 bettan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruratiga asoslanib, tadqiqotning fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, mavzuning o‘rganilganlik darajasi, maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, e‘lon qilingan ishlari va dissertatsiya tuzilishi va hajm bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Qoraqalpog‘iston Respublikasi maktablarida kompyuter texnologiyalari asosida kimyo fanin o‘qitishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida ta‘lim tizimida kompyuter texnologiyalari asosida o‘qitishning ijtimoiy ahamiyati, kompyuter texnologiyalari asosida kimyo fanin o‘qitishning didaktik ahamiyati va kompyuter texnologiyalari asosida kimyo fanin o‘qitishning pedagogik imkoniyatlari yoritib berilgan.

Zamonaviy axborot texnologiyalari (ZAT) ta‘limda o‘qitish usullarini takomillashtirish va o‘quv jarayonini samaraliroq qilishda muhim rol o‘ynaydi. Bu texnologiyalar o‘qituvchi va o‘quvchilarga bilim olishda yangi imkoniyatlar yaratib, o‘quv materiallarini yanada qiziqarli va ta’sirchan shaklda yetkazishga imkon beradi. ZAT ning ta‘lim jarayoniga tatbiqi nazariy asoslarni ishlab chiqishni, pedagogik maqsad va vazifalarni qayta ko‘rib chiqishni, yangi metod va yondashuvlarni o‘zlashtirishni talab qiladi.

Yoshlarning ekrandan ma'lumot olib o'zlashtirishga moyilligi juda kuchli. O'qituvchilarning vazifasi shuni bilgan holda, ularga oson bo'lgan yondashish orqali ma'lumotlar berish lozim


O'zbekiston olimlaridan p.f.d., professor H.T.Omonov o'z tadqiqot ishida kimyo fanini o'qitishning falsafiy-pedagogik asoslarini takomillashtirish yechimlariga javob topgan.

F.A.Alimovanning ilmiy tadqiqot ishi ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish va ularning nazariy asoslarini o'rganishga bag'ishlangan. Uning ishlari ta'lim jarayonida axborot texnologiyalarining samaradorligini oshirish, o'qitish usullarini takomillashtirish va o'quvchilar uchun interaktiv ta'lim imkoniyatlarini yaratish masalalariga qaratilgan.

M.B.Ajievanning tadqiqot ishida maktab kimyo bosqichida mahalliy xom ashyolardan va Galogenlar mavzusida ta'lim jarayonini takomillashtirish uchun zamonaviy o'qitish usullari va axborot texnologiyalaridan foydalangan.

Dissertatsiyaning **“Qoraqalpog'iston Respublikasi maktablarida kompyuter texnologiyalari asosida kimyo faninin o'qitishning metodik asoslari”** deb nomlangan ikkinchi bobida kimyo fanida dars jarayonida qo'llaniladigan dasturiy vositalarni foydalanishning shart-sharoitlari, kompyuter texnologiyalari asosida kimyo fanin o'qitishni takomillashtirish modeli va Qoraqalpog'iston Respublikasi maktablarida kimyo darslarida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish metodikasi o'rganildi. Kompyuterdan foydalangan holda didaktik tizim repetitorga ko'proq o'xshaydi, ya'ni ta'lim maqsadlariga erishish nuqtai nazaridan eng samarali. Ammo repetitorlik didaktik tizimi kompyuterning paydo bo'lishi munosabati bilan ba'zi o'zgarishlarga duch kelishi kerak. B.E.Starichenko tomonidan taklif etilgan «o'qituvchi-o'quvchi-kompyuter» yangi didaktik tizimidagi axborot o'zaro ta'sirining variantlari O'qitishni tashkil etishning auditoriya shakli doirasida o'zimiz tomonidan ishlab chiqilgan kompyuter dasturlaridan dars jarayonida foydalanishni taklif qilamiz. Shuni ta'kidlash kerakki, ulardan individual mustaqil ishlarni tashkil etishda ham, masofaviy o'qitishda ham samarali foydalanish mumkin. Kompyuter dasturlarini qo'llash asosida dars tayyorlashning zarur elementi o'quvchilar uchun didaktik materiallarni ishlab chiqishdir. Keyin o'qituvchi darsning borishini ishlab chiqadi, reja-konspektni tuzadi. Darsning maqsadi va vazifalariga qarab darsning shakli va turi har xil bo'lishi mumkin.

Kimyo fanida dars jarayonini interaktiv va samarali qilish uchun turli xil dasturiy vositalar qo'llanilishi mumkin.



2.2.1-rasm. Elektron ta'lim muhitida kimyo fanin o'qitish metodikasini takomillashtirish modeli

Mazkur model umumiy o'rta ta'lim maktablarida kimyo fanini o'qitish samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan bo'lib, kompyuter texnologiyalaridan foydalanish orqali ta'lim jarayonini modernizatsiya qilishni ko'zda tutadi. Model bir necha tarkibiy qismlardan iborat bo'lib, har bir qism o'ziga xos vazifa va funksiyalarga ega. Kompyuter ta'lim texnologiyalari asosida Qoraqalpog'iston Respublikasi maktablarida kimyo fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish, kimyo fanini o'qitish jarayoniga tatbiq etish natijasida o'quvchi, o'qituvchi va elektron ta'lim resurslari o'rtasida samarali o'zaro ta'sir vujudga keladi. Ushbu o'zaro ta'sirning muhim jihatlaridan biri shundaki, u nafaqat o'quvchining egallagan bilim darajasini, balki o'qituvchining kasbiy salohiyatini va elektron kurslarning sifatini baholash imkonini beradi. Bunday yondashuv o'qituvchining ish sifatini aniqlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi, chunki o'quvchilar o'qituvchining faoliyati yuzasidan fikr bildirishi orqali bevosita baholash jarayonida ishtirok etadilar. Shu bilan birga, elektron ta'lim vositalarini ishlab chiqish faoliyati ham nazorat ostida bo'ladi, bu esa o'z navbatida, butun kimyo fanin o'qitish tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilar faolati doimiy monitoring asosida tahlil qilinishi, metodik yondashuvlarning takomillashtirilishi va zamonaviy texnologiyalar asosida o'qitish samaradorligining oshirilishi zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli, kimyo fanini o'qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish nafaqat bilim berish jarayonini yengillashtiradi, balki ta'lim sifatining izchil oshib borishiga va mustaqil tarzda takomillashtirishga zamin yaratadi.

So'nggi o'n yil davomida axborot texnologiyalarining keng qo'llanilishi natijasida ta'lim tizimi tubdan o'zgarib, internet, mobil aloqa hamda raqamli texnologiyalar asosida yangi bosqichga ko'tarildi. Bu o'zgarishlar natijasida ishlab chiqilayotgan ta'lim standartlari zamonaviy, dinamik rivojlanayotgan global muammolarga javob berishga qaratilgan bo'lishi lozim. Shuning uchun biz tarafimizdan yaratilgan masofaviy ta'limplatformasi o'quvchilarning kompyuter texnologiyalari asosida kimyo fanidan egallagan bilimlarini mustaqil o'zlashtirishda zamonaviy yondashuv hisoblanadi. Shuningdek bizning ilmiy tadqiqot ishimizdagi «Elektron ta'lim muhitida kimyo o'qitish metodikasini takomillashtirish» modelida ham yaratilgan ta'lim muhiti o'qitishning asosiy natijalarin korsatadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu model orqali o'quvchilarning bilim darajasining oshishi, ta'lim jarayonidan yuqori darajadagi qoniqish hosil qilishi, shuningdek, nufuzli ta'lim muassasalarida o'qish imkoniyatlari kengayishi kutilmoqda.

Ushbu modelning joriy etilishi nafaqat o'quvchilar, balki ta'lim muassasalarining o'zlari uchun ham ijobiy natijalar berishi mumkin. Jumladan, ko'proq o'quvchilarni jalb etish, ta'lim xizmatlarini boshqa mintaqa va mamlakatlarga eksport qilish orqali moliyaviy barqarorlikka erishish, yangi ish tajribalarini shakllantirish hamda masofaviy ta'lim tizimini takomillashtirish imkoniyati yuzaga keladi. Shuningdek, modelning yana bir muhim afzalligi - mavjud ta'lim imkoniyatlarining kengayishi va bu orqali ijtimoiy tengsizlik darajasining pasayishi hisoblanadi. O'z navbatida, bu holat aholining umumiy

madaniy saviyasining oshishiga xizmat qiladi. Endilikda jamiyat a'zolari ijtimoiy holatidan qat'i nazar, ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lishadi; bunda ular makon va zamon kabi omillardan cheklovsiz foydalana oladilar.

Bugungi kunda ta'lim tizimida yangi avlod standartlariga bosqichma-bosqich o'tish jarayoni davom etmoqda. Axborot jarayonlarining globallasuvi insoniyat sivilizatsiyasining muhim bosqichiga aylangan bir paytda, ta'lim sohasini raqamlashtirish va axborot texnologiyalarini keng joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Elektron ta'limning muhim jihatlaridan biri shundaki, u nafaqat o'quvchilarning o'quv jarayoniga bo'lgan qiziqishini oshiradi, balki ularni o'z bilimlarini mustaqil ravishda sinab ko'rishga, taqdim etilgan materiallarning murakkablik darajalariga mos tarzda individual yondashishga undaydi. Bunday yondashuv orqali o'quvchilar mavzu yuzasidan turli topshiriqlar, mashq va masalalar ustida ishlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shuningdek, ular aynan eng ko'p xatoga yo'l qo'yilgan bo'limlarga alohida e'tibor qaratish, kerak bo'lsa qo'shimcha resurslardan foydalanish, bilimni baholashni esa nazorat emas, balki xatolarni tahlil qilish va tuzatish vositasi sifatida ko'rishni o'rganadilar.

Elektron ta'lim muhiti o'quvchilarni o'z ustida doimiy ishlashga yo'naltiradi. Bu esa ularda kognitiv qobiliyatlar bilan birga reflektiv ko'nikmalarning shakllanishiga xizmat qiladi. Mustaqil fikrlash, mavzu bo'yicha turli manbalarni tahlil qilish, tanqidiy va kreativ yondashuv, qolipdan tashqarida fikrlash kabi ko'nikmalar ham aynan shu jarayonda rivojlanadi. Elektron ta'lim muhitida fan xususiyatlaridan kelib chiqib interaktiv metodlardan oqilona foydalanish zarur. Xususan, kimyo ta'limida bu faning o'ziga xos didaktik xususiyatlarini hisobga olish muhimdir. Kimyo fani eksperimental faoliyatga asoslanishi bilan ajralib turadi, ya'ni empirizmga alohida urg'u beriladi. Shuningdek, kimyoviy qonun va nazariyalar ko'pincha matematik formulalar orqali ifodalanadi, bu esa o'quvchilardan formulalar bilan ishlash ko'nikmasini talab qiladi. Kimyo fanining yana bir o'ziga xos jihati - simvolik belgilar tizimi va kimyoviy tenglamalar orqali jarayonlarni ifodalash bo'lib, bunda moddalar saqlanish qonunlariga qat'iy rioya etish zarur. Tabiiy hodisalar va kimyoviy jarayonlarning sabab-oqibat munosabatlarini yoritish esa mazkur fan doirasida chuqur tahlil va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois, kimyo ta'limida elektron resurslar bilan ishlashda maxsus yondashuvlar, shuningdek, fanga xos kontseptual asoslarni hisobga olgan holda interaktiv metodikalarni joriy etish katta ahamiyat kasb etadi.

Elektron ta'lim muhitida kognitiv, eksperimental va rolli o'yinlar (modellashtirish) kabi interfaol metodlardan foydalanishga oid uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ushbu metodlar o'quvchilarning bilimni chuqur anglab olishiga, faol ishtirok etishiga va mavzularni amaliy nuqtai nazardan o'zlashtirishiga xizmat qiladi. Elektron ta'lim resurslarini yaratishda keng qo'llanilayotgan Kundalik.com platformasi o'zining funksional imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Kundalik.com - bu nafaqat elektron ta'lim resurslarini boshqarish tizimi, balki virtual ta'lim muhiti sifatida ham pedagoglar orasida keng tan olingan vositadir.

Kundalik.com - bu O'zbekiston maktablarida keng qo'llaniladigan elektron kundalik va jurnal tizimi bo'lib, u quyidagi asosiy afzalliklarga ega:

Ota-onalar farzandining baholari, dars jadvali, uyga vazifalari va davomatini doimiy kuzatib borishi mumkin. O'quvchilar dars jadvalini, baholarini va uy vazifalarini istalgan vaqtda ko'ra olishadi. Shu bilan birga, darsga tayyorlanishlari ham osonlashadi. O'qituvchilar uchun vaqt tejraladi. Baholarni, davomatni kiritish, eslatmalar yuborish jarayonlari avtomatlashtirilgan, bu o'qituvchilarning vaqtini tejaydi. Axborot tez yetkaziladi. Maktab yangiliklari, muhim e'lonlar, tadbirlar haqida xabarlar darhol yetkaziladi. Statistik tahlillar imkoniyati o'quvchilar faolligi, baholari va davomat bo'yicha tahlillar o'tkazish mumkin - bu o'quv jarayonini yaxshilashga yordam beradi. Mobil ilova mavjud android va iOS uchun mobil ilovalari mavjud bo'lib, istalgan joydan tizimga kirish imkonini beradi.

Ta'lim sifatini oshirishda o'qituvchilar va ma'muriyat o'quvchilarning rivojlanishini real vaqtda kuzatib borib, kerakli choralarni tezda ko'rishadi. Baholash jarayoni aniq, shaffof va tizimli bo'ladi. Vaqt va qog'oz sarfini kamaytiradi. An'anaviy kundalik va jurnalga ehtiyoj qolmaydi - barcha ma'lumotlar raqamli shaklda saqlanadi. Hisobotlar avtomatik yaratiladi. Onlayn muloqot imkoniyati o'qituvchi, o'quvchi va ota-onalar o'zaro xabar almashishi, eslatmalar yuborishi mumkin. Xabarlar orqali muhim ma'lumotlar tez yetkaziladi. Uyga vazifalarni nazorat qilish osonlashadi. Har bir dars uchun uy vazifalari tizimda aniq ko'rsatiladi.

O'quv jarayonini individual va guruhli faoliyat asosida tashkil etishga, o'quvchilar bilim darajasini monitoring qilishga, hamda o'zaro muloqot va fikr almashishni ta'minlashga xizmat qiladi. Kimyo ta'limida amaliy mashqulotlarni o'rganish doimo muhim o'rin tutib kelgan. Bu jarayonda o'qituvchi o'quvchiga yo'naltiruvchi sifatida faoliyat yuritadi va muammoni hal etish bo'yicha tizimli yondashuv asosida o'quvchilarni fikrlashga undaydi. Mazkur yondashuv muntazam ravishda qo'llanilganda, o'quvchilarda tizimli va mantiqiy asoslangan kimyoviy fikrlash ko'nikmalari shakllanadi.

Shu bilan birga, kimyo fanini o'rganishga ajratilgan vaqtning cheklanganligi, ko'pchilik o'quvchilarda kimyoviy masalalarni yechishga bo'lgan ichki motivatsiyaning pastligi va boshqa omillar bu metodik yondashuvni to'laqonli amalga oshirishga to'sqinlik qilmoqda. Shunday sharoitda elektron ta'lim muhitidan samarali foydalanish, ayniqsa interaktiv va mustaqil o'qitishga yo'naltirilgan metodlarni joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'quvchilarda kimyoviy masalalarni yechish ko'nikmalarini shakllantirish bilan bog'liq muammolarni zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy qilmasdan turib samarali hal etish imkonsizdir. Bu borada ayniqsa yangi metodologik yondashuvlarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish zarurati yuzaga keladi. Ushbu yondashuv orqali o'quvchilarni elektron ta'lim resurslari yordamida maqsadli va tizimli tarzda kimyoviy fikrlashga o'rgatish mumkin bo'ladi. Bu esa masalalarni bosqichma-bosqich tahlil qilish, ular ustida mustaqil ishlash va xulosalarga kelish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Elektron platformalardan foydalanish, xususan Kutools kompyuter texnologiyalari asosida kimyo fanini o'qitishda asinxron bog'lanish, masaofaviy aloqalar orqali innovatsion yondashiv asosida «Oprosnik 2», «Adonis», «Super test», «EquPixy» kabi dasturlarda test shaklidagi topshiriqlar va bilimlarni nazorat

qilish, bazasini shakllantirish doimiy yangilab borish imkonini yaratadi. Bunday texnologiyalar, bir tomondan, o'quvchilar bilim darajasini aniqlash va tahlil qilishga xizmat qilsa, boshqa tomondan esa, ularning kimyo fanini axborot ta'lim vositalari orqali hal qilishga bo'lgan qiziqishi va motivatsiyasini oshirishga yordam beradi. Kimyoviy masalalarni yechish jarayonida elektron vositalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida Excel dasturi asosida algoritmik yechimlarni amalga oshirish usullari ishlab chiqildi. Bunday yondashuv orqali o'quvchilar uchun tushunarli va foydalanishga qulay bo'lgan elektron jadvallar yordamida masalalarni bosqichma-bosqich hal qilish imkoniyati yaratiladi. Shu tarzda tuzilgan elektron algoritmlar masala yechish bo'yicha nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmaga aylantirishga, jarayonni vizual tarzda kuzatish orqali kimyoviy fikrlashni chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan modernizatsiya jarayonlari o'quvchilarning mustaqil fikrlash va o'quv faoliyatiga bo'lgan e'tiborni kuchaytirmoqda. Turli loyiha ishlari, mustaqil topshiriqlar va ularni tashkil etish mexanizmlarining takomillashtirilishi aynan shu yo'nalishdagi islohotlarning amaliy ifodasidir. Ushbu jarayonlarni aks ettiruvchi milliy dasturlar o'quvchilar mustaqil faoliyatini samarali tashkil etish va boshqarishning yangi, interaktiv usullarini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Elektron ta'lim muhitida 7-sinf kimyo darslarida "Vodorodning olinishi" mavzusi asosida o'quv jarayonini tashkil etishda interfaol texnologiyalarni integratsiyalash orqali yaxlit metodik model ishlab chiqildi va takomillashtirildi. Mazkur model zamonaviy kompyuter texnikasi imkoniyatlaridan foydalangan holda tuzilgan bo'lib, virtual laboratoriyalar, eksperimentlarning animatsion tasvirlari kabi vositalarni o'z ichiga oladi. Bu esa kimyoviy tajribalarni elektron muhitda tashkil qilish imkonini beradi va natijada o'quvchilarda nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiluvchi metodik baza yaratadi.

Model asosida kimyodan amaliy va laboratoriya mashqulotlarni ham takomillashtirilgan. Bu jarayonda adaptiv yondashuv ustuvor bo'lib, elektron algoritmlash usullari, maxsus konverter dasturlaridan foydalanish orqali o'quvchilarning individual o'quv ehtiyojlari va bilim darajasiga moslashtirilgan yechimlar ishlab chiqilgan. Shu tariqa kimyo faniga oid amaliy va laboratoriya mashqulotlarni yechishda o'quvchilarda mantiqiy fikrlash, tahliliy yondashuv va ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish ko'nikmalari shakllantiriladi.

Tizim doirasida o'quvchilarda kimyo faniga oid ilmiy xabardorlik va amaliy kompetensiyalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, kimyo fanidan mustaqil ishlarni tashkil etishda elektron platforma - masalan, kimyoviy elementlarning interaktiv davriy jadvali axborot tizimi interfeysi sayiti yaratilgan <https://ximetod.uz> va kimyo o'qituvchilarining o'quvchilarni o'qitishdagi metodik tizimi va boshqa ta'limiy muhitlar imkoniyatlaridan samarali foydalanish mexanizmi takomillashtirilgan. Bu esa o'quvchilar faoliyatini faollashtirish, bilimlarni mustahkamlash, o'zlashtirish darajasini tahlil qilish va ta'limni shaxsiylashtirish imkonini beradi. Shuningdek, mazkur model doirasida kimyo fanini o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan bir qatorda ilg'or pedagogik yondashuvlardan foydalanish yo'lga qo'yildi. Bu esa o'quvchilarning

bilish jarayonini interfaol metodlar asosida faollashtirishga, ularning mustaqil o'rganish motivatsiyasi va ilmiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning **“Pedagogik tajriba-sinov ishlari va ularning natijalari tahlili”** nomli uchinchi bobida Pedagogik tajriba-sinov ishlari va ularni tashkil qilish va pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalari va ularning statistik tahlili bayon etilgan. Pedagogik tajriba-sinov ishlarining mazmuni va mohiyati, natijalari va ularning matematik-statistik tahlili aniqlashtirildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining umumiy o'rta ta'lim maktablarida “Kimyo” fanining barcha bo'limlarini o'qitishni takomillashtirish maqsadida ta'lim vositalarini uyg'unlashtirish yuzasidan ishlab chiqilgan metodik tavsiyalarning samaradorligi aniqlandi.

Tajriba sinov ishlariga Qoraqalpog'iston Respublikasi Shumanay tumani №7, Nukus tumani №4, Qorao'zak tumani №1, Qanliko'l tumani №23-sonli maktablarida o'quvchilarning “Kimyo” fani bo'yicha o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalari aniqlandi va tajriba-sinovning dastlabki holati o'rganildi. Olingan natijaga ko'ra nazorat va tajriba guruhlarini belgilandi. Tajriba-sinovda ishtirok etayotgan kimyo o'qituvchilariga nazorat guruhlarida o'qitish jarayoni tasviriy vositalar va an'anaviy tarzda o'qitish, tajriba guruhlarida esa, ta'lim vositalaridan uyg'un foydalanish tavsiya etildi. Mezon va ko'rsatkichlarga muvofiq o'tkazilgan testlar asosida o'quvchilar bilim ko'nikmalari sifatini, faolligini yuqori darajasini baholadik. Testlar, topshiriqlar tuzishda reproduktiv muammoli va ijodiy vazifalar kiritilgan. Bajirilgan ishlarni baholash tizimi 100-90 % a'lo, 89-71% yaxshi, 70-55% qoniqarli darajalarda taqsimlab aniqlaganmiz. Eksperiment natijalarini miqdoriy baholash uchun matematik usullardan foydalanib hisoblagan.

Pedagogik tajriba-sinov davomida o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikmalarni baholash mezonlari ishlab chiqildi.

